

**Attestatsiyaning ikkinchi bosqichi suhbat (savol-javob)da
foydalaniladigan savolnomalar
RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” hamda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarini bilish darajasi.

2. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishga doir qabul qilingan strategiyalar (“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi va b.) va ulardagi ta’limga oid muhim vazifalar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kasbiy ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan:

- Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida (16.10.2024-yil, PF-158-son);

- Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida (18.07.2022-yil, PQ-323-son);

- Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (30.07.2021-yil, PQ-5203-son);

- Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (26.03.2021-yil, PQ-5040-son);

- Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (06.11.2020-yil, PQ-4884-son);

- Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (20.10.2020-yil, PF-6084-son);

- Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (05.09.2019-yil, PF-5812-son)

Farmon va qarorlarining mazmun mohiyati haqidagi tushunchaga ega ekanligi.

4. Kasbiy ta’lim tizimiga oid Vazirlar Mahkamasining:

- O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida (07.08 2020-yil, 466-son);

- Boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning davlat namunasini tasdiqlash haqida (19.11.2020-yil, 734-son);

- Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (26.02.2021-yil, 106-son);

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida (01.08.2008-yil, 165-son);

- O'zbekiston Respublikasining professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (11.11.2020-yil, 715-son);

- Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida (29.03.2021-yil, 163-son);

- O'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida sirtqi va kechki ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (28.07.2022-yil, 411-son);

- Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida (07.12.2023-yil, 648-son);

- Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (13.12.2024-yil, 836-son);

- Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (28.12.2024-yil, 900-son) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarini bilishi.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining kasbiy ta'lim tizimi tartibga solishga doir buyruq va yo'riqnomalardan xabardorligi va ularning ijrosi yuzasidan bajargan ishlari.

6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan:

- O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida pedagog xodimlar ish faoliyatining vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida (12.11.2024-yil, ro'yxat raqami 3572);

- Professional ta'lim muassasalari ishlab chiqarish ta'limi ustalarining namunaviy yillik ish rejasi hamda ularning asosiy faoliyat turlariga sarflanadigan vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida (30.03.2024-yil, ro'yxat raqami 3509);

- Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari va muhandis-pedagog kadrlarning bo'sh lavozimlarni egallash uchun ularni tanlov asosida tanlab olish to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida (26.04.2024-yil, ro'yxat raqami 1461-3);

- Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (19.05.2008-yil, ro'yxat raqami 1812) va boshqa kasbiy ta'limga oid idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib va qoidalarni bilish darajasi.

7. Amaldagi mehnat qonunchiligi va moliyaviy hujjatlarini amaliyotda qo'llashni bilish ko'nikmalari.

8. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi.

9. Boshqaruv faoliyatiga doir bilim va ko‘nikmalarga egaligi va mantiqiy fikrlash hamda qaror qabul qilish qobiliyati.

10. O‘zbekiston milliy malaka tizimiga doir bilimlari.

11. Ta’lim tizimiga tegishli bo‘lgan milliy va xalqaro standartlardan xabardorligi.

12. Ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘rnatilgan me‘yorlar va tartib qoidalar.

13. Kasbiy ta’lim sohasida ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari.

14. Ta’lim tizimi tuzilishi, turlari va shakllarini bilish darajasi.

15. Kasbiy ta’lim tizimida foydalaniladigan o‘quv-me‘yoriy hujjatlar haqida tushunchaga ega ekanligi.

16. Ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirishga oid normalarni amaliyotda qo‘llay bilish.

17. Davlat ta’lim standartlari, malaka talablar, o‘quv reja va dasturlarning tuzilishi hamda qo‘llanilishi.

18. O‘quvchilar amaliyotlarini o‘tkazish tartib va qoidalari.

19. O‘qitishning kredit-modul tizimi.

20. O‘quv adabiyotlar ta’minoti va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish.

21. Pedagog kadrlar malakasini oshirish, malaka toifalarini attestatsiya qilish, ishga qabul qilish va pedagogik yuklamalar bo‘yicha bilim darajasi.

22. Qisqa muddatli o‘quv kurslarni tashkil etish tartib qoidalari.

23. Bitiruvchilarga beriladigan davlat namunasidagi hujjatlar bo‘yicha bilimga ega ekanligi.

24. Ta’lim sifatini ta’minlashga doir bilimlar.

25. Mehnat bozori ehtiyojlari va ta’lim bilan o‘zaro integratsiya masalalari.

26. Bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish tartib qoidalari.

27. O‘quvchilar harakati, kursda qoldirish, akademik ta’til berish, o‘qishni ko‘chirish va o‘qishga qabul qilishga doir tartib qoidalarini bilish.

28. Ta’lim muassasalarini moddiy texnika bazasini mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish, xom-ashyo ta’minoti bo‘yicha tushunchalarga egaligi.

29. Yashil iqtisodiyotga o‘tishga doir bilimlar.

30. Budjetdan tashqari mablag‘lar ishlab topish tartib qoidalari.

31. Investitsiyalarni jalb etish hamda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga doir bilimlar.

32. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish hamda umumta’lim maktablari bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalariga ega ekanligi.

33. Texnikumning strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqishga doir bilim va ko‘nikmalarga ega ekanligi.

34. Yoshlar bilan ishlash, sport, ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid bilimlar.

35. WorldSkills musobaqalari va boshqa xalqaro kasbiy ta'limga doir bellashuvlar bo'yicha xabardorlik.

36. Attestatsiya va akkreditatsiya bo'yicha tushunchalarga ega ekanligi.

37. Budget va byudjetdan tashqari mablag'larni rejalashtirish va xarajat qilishga doir tushunchalar.

38. Korrupsiyaga oid bilim va ko'nikmalari.